

ZAMONAVIY DARS VA DARS TAHLILINI O'TKAZISHGA NISBATAN YONDASHUVLAR

Norboyev Foziljon Fayzulla o'g'li

SHDPI MI 4-kurs talabasi

Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna

SHDPI katta o'qituvchisi

Negmatova Sevinch Ergash qizi

Qarshi davlat texnika universiteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16570857>

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy dars va uning tahliliga nisbatan innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va o'quvchi markazli yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Dars tahlili nafaqat o'qituvchining faoliyatini baholash, balki ta'lim sifatini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Refleksiv va diagnostik tahlil usullarining o'rni, shuningdek, zamonaviy ta'lim standartlariga muvofiq dars jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari muhokama etiladi. Maqola zamonaviy ta'lim tizimida samarali dars tashkil etish va uni tahlil qilishga oid amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy dars, dars tahlili, interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, refleksiv tahlil, diagnostik tahlil, ta'lim sifati, o'quvchi markazli ta'lim, raqamli texnologiyalar.

Annotation. This article analyzes innovative approaches to modern lessons and their evaluation. The importance of interactive methods, digital technologies, and student-centered approaches in enhancing the effectiveness of the educational process is highlighted. Lesson evaluation is considered not only as an assessment of the teacher's performance but also as a tool for improving education quality. The role of reflective and diagnostic evaluation methods, as well as opportunities to improve the lesson process in accordance with modern educational standards, is discussed. The article provides practical recommendations for organizing effective lessons and their evaluation in the contemporary education system.

Keywords: Modern lesson, lesson evaluation, interactive methods, innovative approaches, pedagogical technologies, reflective evaluation, diagnostic evaluation, education quality, student-centered learning, digital technologies.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonida bo'lib, uning asosiy maqsadi talabalarni jahon bo'ylab bo'ladigan raqobatbardosh va innovatsion muhitga tayyorlashdir. Ta'lim jarayonining samaradorligi bevosita dars o'tishning sifatiga bog'liq bo'lib, bu esa o'qituvchining pedagogik mahoratiga, metodologik yondashuvlariga va o'quvchilarning faol ishtirokiga bog'liq. Shuningdek, ta'limning samaradorligini oshirishda dars tahlilining o'rni katta. Dars tahlilining o'ziga xos yondashuvlari va usullari mavjud bo'lib, ular ta'lim jarayonining turli jihatlarini o'rganishga imkon beradi. Bular o'quvchilarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Dars tahlili o'qituvchiga o'z faoliyatini yaxshilashda yordam beradi, shuningdek, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy dars tahlilining yondashuvlari va usullari bugungi kunda faqatgina dars davomida qo'llaniladigan metodlar bilan cheklanmaydi. Ular, shuningdek, o'qituvchining o'z maqsadlariga erishish uchun turli pedagogik texnologiyalarni, innovatsion yondashuvlarni va

o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llashini ham o'z ichiga oladi. Zamonaviy yondashuvlarning asosiy maqsadi o'qituvchining didaktik jarayonni samarali tashkil etishi, o'quvchilarning ta'limda faol ishtirokini ta'minlash va ularning o'z-o'zini rivojlantirishini rag'batlantirishdir.

Zamonaviy ta'limda dars tahlili va tahlilning turli yondashuvlari o'qituvchining pedagogik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borish va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini yuqori darajaga olib chiqish uchun zarur vositalardan biridir. Ta'limda bu yondashuvlarni muvaffaqiyatli qo'llash o'qituvchining professionalligi va pedagogik mahoratini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Dars tahlili va zamonaviy pedagogik yondashuvlar, shuningdek, ta'lim tizimini yaxshilash, o'quvchilarning samarali o'qishini ta'minlash va o'qitish jarayonining umumiy sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta'lim tizimi doirasida dars va dars tahlilini o'tkazishga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Ushbu yondashuvlar nafaqat o'qituvchining pedagogik faoliyatini yaxshilash, balki o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Dars tahlilini o'tkazishga nisbatan yondashuvlar bo'yicha ko'plab xorijiy va respublika olimlarining ilmiy ishlanmalari mavjud. Quyida bir necha olimlarning zamonaviy dars va dars tahliliga bergan tahlillarini ko'rib chiqamiz.

Xorijiy olimlardan biri, ingliz olimi Jon Dewey bo'lib, uning pedagogik ta'limiga qarshi ko'plab fikrlar mavjud. Deweyning ta'limga oid qarashlari, ayniqsa, "tajriba va faoliyat" asosida pedagogika tamoyillariga asoslangan bo'lib, dars jarayonini o'quvchilarning faol ishtirokiga asoslashni va o'quvchilarni muammolarni yechish jarayoniga jalb qilishni tavsiya etgan. Dewey o'zining "Demokratiya va ta'lim" asarida, ta'limning jamiyatdagi o'rnini va uning ahamiyatini o'rgangan, shuningdek, dars tahlilining o'quvchi markazli yondashuvlar asosida olib borilishini taklif etgan. [1]

Bundan tashqari, ingliz pedagogi Richard Smith o'zining "Zamonaviy ta'lim va dars tahlili" asarida ta'lim metodlarini yangi zamon talablari asosida yangilashni muhim deb hisoblaydi. Smithning fikriga ko'ra, dars tahlili nafaqat dars jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan, balki o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini baholash va tahlil qilish imkonini berib, dars tahlilining yangi metodlarini o'rganish va qo'llash, o'qituvchining o'z maqsadlariga erishish uchun zarur vosita ekanligini ta'kidlaydi. [2]

O'zbekiston olimlari orasida, pedagogika sohasidagi ilmiy izlanishlarni olib borayotgan olimlardan biri, professor Omonov Iskandarbek, zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining dars tahlilini o'tkazishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, dars tahlili o'qituvchining darsni tahlil qilish jarayonida pedagogik mahoratini shakllantiradi va o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini oshiradi. Omonov, dars tahlilining amaliy yondashuvlar asosida o'qituvchining metodik faoliyatini takomillashtirishga, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishga yordam berishini aytadi. Dars tahlili orqali o'qituvchi o'z faoliyatini baholab, uni yanada mukammallashtirishi mumkin, bu esa o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini oshirishga olib keladi. [3]

Shuningdek, O'zbekistondagi mashhur pedagog olimlardan biri, professor Tursunov Ilhom zamonaviy pedagogik metodlarni o'qituvchining faoliyatini tahlil qilishga qaratilgan yondashuvlarga asoslaydi. Tursunov, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda dars tahlilining ahamiyatiga e'tibor qaratadi. U dars tahlilini pedagogik faoliyatni baholashning bir

vositasi sifatida tavsiflaydi va uning o'quvchilarni o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga yordam berishini ta'kidlaydi. [4]

Metod. Informatika darslarini tashkil etishda o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish va ularni real hayotdagi vazifalarni yechishda qo'llashni rivojlantirish muhimdir. Zamonaviy dars tahlilini o'tkazishning bir nechta samarali usullari mavjud. Quyida eng ommabop va samarali metodlarni keltirib o'taman:

SWOT tahlili. Bu usul yordamida darsning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlarini baholash mumkin.

- *S (Strengths)* – Darsning kuchli tomonlari: o'quvchilarning faolligi, interfaol metodlar, texnologiyalarni qo'llash.
- *W (Weaknesses)* – Darsning zaif tomonlari: vaqt yetishmovchiligi, o'quvchilar faolligining pastligi.
- *O (Opportunities)* – Imkoniyatlar: yangi texnologiyalar, interfaol vositalarni joriy qilish.
- *T (Threats)* – Tahdidlar: texnik muammolar, vaqt cheklovi, o'quvchilarning motivatsiyasi pasayishi.

Blox tahlili. Bu usul bo'yicha dars quyidagi 4 jihatdan tahlil qilinadi:

- *Reja:* Dars qanday rejalashtirilgan?
- *Jarayon:* Dars qanday o'tdi, qanday usullar ishlatildi?
- *Natija:* Dars yakuni qanday bo'ldi, maqsadlarga erishildimi?
- *Tavsiya:* Keyingi darslar uchun qanday taklif va tavsiyalar beriladi?

Refleksiv tahlil. Bu metod darsdan keyin o'qituvchi va o'quvchilar fikrlarini jamlashga qaratilgan. O'qituvchi o'z darsini quyidagi savollar asosida baholaydi:

- Darsda qanday yutuqlarga erishildi?
- Qanday qiyinchiliklar yuzaga keldi?
- Kelgusi darslar uchun qanday xulosalar chiqarish mumkin?

Lesson Study. Bu metod bo'yicha o'qituvchilar jamoaviy ravishda darsni rejalashtiradi, kuzatadi va tahlil qiladi. Ushbu jarayon uch bosqichdan iborat:

- Darsni rejalashtirish
- Kuzatish
- Tahlil va xulosa chiqarish.

Video tahlil. O'qituvchi dars jarayonini videoga yozib olib, keyinchalik o'z faoliyatini tahlil qiladi. Bu usul darsning qaysi joylarida yaxshilanish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

360 darajali tahlil. Bu usul bo'yicha darsni o'qituvchi, o'quvchilar, hamkasblar va nazoratchilar baholaydi. Shu orqali obyektiv xulosa chiqarish mumkin.

So'rovnoma asosidagi tahlil. So'rovnoma yordamida o'quvchilar va boshqa pedagogik xodimlarning darsdagi tajribasini baholash mumkin.

Natija. Zamonaviy informatika darslarini boshqa pedagogik xodimlar (o'qituvchilar, metodistlar yoki tahlilchilar) tomonidan tahlil qilish uchun so'rovnoma usulini qo'llash juda samarali bo'ladi. So'rovnoma yordamida dars jarayonini tahlil qilish o'quvchilarning, o'qituvchining va darsni tashkil etgan shaxsning turli nuqtai nazarlarini o'rganishga yordam beradi. Bu metod, darsning sifatini yaxshilash va pedagogik yondashuvni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Dars tahliling so'rovnomada yordamida o'quvchilar va boshqa pedagogik xodimlarning darsdagi tajribasini baholash mumkin. So'rovnoma quyidagi asosiy yo'nalishlar va savollarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1.	Darsning umumiy tahlili	_____ (Darsda foydalanilgan metodlar o'quvchilarning qiziqishini oshirdimi?) _____ (Darsda foydalanilgan metodlar o'quvchilarning qiziqishini oshirdimi?) _____ (Darsda foydalanilgan metodlar o'quvchilarning qiziqishini oshirdimi?) _____ (Darsning umumiy tuzilishi va tartibi to'g'ri tashkil etilganmi?)
2.	O'quvchilarning ishtiroki va faolligi	_____ (Darsda o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanganmi?) _____ (O'quvchilar dars davomida o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ldilar?) _____ (Guruhlarda ishlash va o'zaro fikr almashish faoliyatini qanday baholaysiz?) _____ (O'quvchilar o'zlarini darsda qanday his qilishdi (qiziqarli, charchagan, motivatsiya topgan)?)
3.	Metod va vositalarning samaradorligi	_____ (Interfaol metodlardan foydalanish darsda samarali bo'ldimi?) _____ (Interaktiv elementlar darsga qanday ta'sir ko'rsatdi?) _____ (Interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning o'zlashtirishini yengillashtirdimi?) _____ (Darsda ishlatilgan texnologiyalar va vositalar samarali bo'ldimi?)
4.	O'quvchilarning bilimi va ko'nikmalarini baholash	_____ (O'quvchilar darsdan qanday bilimlarni oldilar?) _____ (O'quvchilar o'z bilimlarini amalda qanday qo'lladilar?) _____ (Darsda qaysi mavzular eng yaxshi o'rganildi?) _____ (Qaysilarida qiyinchiliklar mavjud edi?)

		(O'quvchilarga qaysi materiallar yoki vositalar eng ko'proq yordam berdi?)
5.	O'qituvchining roli va darsdagi boshqaruv	(O'qituvchi dars davomida qanday metodlarni qo'lladi va ular samarali bo'ldimi?) (O'qituvchi o'quvchilarga qanday yordam ko'rsatdi?) (O'qituvchi darsni qanday boshqardi, qanday tashkilotchi sifatida ko'rsatilgan?) (Darsda o'qituvchining o'quvchilarga individual yondashuvi qanday bo'ldi?)
6.	Darsning o'quvchilarga ta'siri va natijalari	(Darsning o'quvchilarga qanday ta'siri bor edi?) (Darsni tugatgandan so'ng, o'quvchilar qanday his-tuyg'ularni bildirganlar?) (Darsda o'quvchilar tomonidan ishlangan ishlar (masalan, taqdimotlar, hisobotlar, guruh ishlar) qanchalik yuqori sifatda edi?)

Muhokama. So'rovnoma o'quvchilar va pedagogik xodimlardan olingan javoblar asosida quyidagi tahlilni amalga oshirish mumkin:

Statistik tahlil. So'rovnomadagi javoblarni statistik tarzda tahlil qilish mumkin. Bunda grafiklar, diagrammalar yordamida o'quvchilarning va o'qituvchilarning javoblarini vizual tarzda ko'rsatish, umumiy tendensiyalarni aniqlash va qaysi sohalarida takomillashtirish kerakligini belgilash mumkin.

Kvalitativ tahlil (Tushuncha tahlili). Savollarga berilgan ochiq javoblar asosida o'quvchilar va pedagogik xodimlarning fikrlarini chuqurroq tahlil qilish mumkin. Bunda o'quvchilarning darsga qanday qarashlarini, metodlarning samaradorligini qanday baholashayotganini va ularning o'quv jarayonidagi hissiyotlarini o'rganish mumkin.

Qiyosiy tahlil. Darsni o'tkazgan pedagogik xodim boshqa o'qituvchilar bilan yoki oldingi darslar bilan taqqoslash orqali tahlil qilish mumkin. Bunday yondashuv, o'quvchilarning avvalgi bilim darajasi, darsning samaradorligi va metodlarning ta'sirini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

So'rovnoma natijalari asosida tahlil qilishning natijalari:

- So'rovnoma asosida to'plangan natijalar orqali o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari va ko'nikmalarining qanchalik samarali bo'lganligini aniqlash mumkin.
- Dars metodlarini va pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish uchun zarur o'zgarishlar kiritiladi.
- O'quvchilarga ko'proq yordam berish kerak bo'lgan joylar aniqlanadi va yangi metodlarni joriy etishda ularning ehtiyojlariga asoslangan yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Bu usul orqali o'quvchilarning darsdagi tajribasini chuqur tahlil qilish, metodlarni va materiallarni optimallashtirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, zamonaviy dars va uning tahliliga nisbatan yondashuvlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda an'anaviy yondashuvlar o'rniga interfaol, innovatsion va o'quvchi markazli metodlarga e'tibor qaratilmoqda. Bunda pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari va tanqidiy fikrlashga asoslangan strategiyalar muhim o'rin tutadi. Dars tahlili esa nafaqat o'qituvchining faoliyatini baholash, balki ta'lim jarayonining sifatini oshirishga yo'naltirilgan konstruktiv tahlil usullaridan iborat bo'lishi kerak. Shu bois refleksiv, diagnostik va monitoring yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. O'qituvchi o'z darsini doimiy tahlil qilish orqali samaradorlikni oshirish, o'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish va dars jarayonini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayeva, Feruza, and Aziza Normatova. "KATTA MA'LUMOTLAR (BIG DATA) UCHUN DBMS TIZIMLARI." *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика* 3.14 (2024): 31-35.
2. Berdiyeva, Gulnoza. "O'ZBEKISTON ELEKTRON SAVDO TIZIMIDA MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR." *Science and innovation in the education system* 3 (2024): 16-22.
3. Berdiyeva, Gulnoza. "RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAQSAD VA VAZIFALARI VA UNING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 3 (2024): 11-14.
4. ShukurulloFayzullo o'g'li, A. (2024). TA 'LIMDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH. *PEDAGOGS*, 50(2), 51-55.
5. Aliqulov, Shukurullo, Ziyavutdin Turayev, and Javlon Nishonov. "BOSHLANG 'ICH SINFI O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURINING ROLI VA AHAMIYATI." *Молодые ученые* 2.10 (2024): 85-90.
6. Fayzullo o'g'li, Shukurullo. "Aliqulov." "TA 'LIMDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH." *PEDAGOGS* 50 (2024): 51-55.
7. Qodirov, Farrux, Muxlisa Mavlonova, and Sevinch Negmatova. "YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI." *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 3 (2024): 13-15.
8. Otabekov, Akbar, and Sevinch Negmatova. "EFFECTIVENESS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ALGORITHMS IN CYBERSECURITY." *Инновационные исследования в науке* 4.5 (2025): 50-52.
9. Qodirov, Farrux, Baxtiniso Boqiyeva, and Sevinch Negmatova. "TCP/IP PROTOKOLLAR STEKI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA." *Молодые ученые* 3.7 (2025): 128-132.
10. Qodirov, Farrux, Yulduz Ahmedova, and Sevinch Negmatova. "KOMPYUTER TARMOQLARINING ASOSIY ELEMENTLARI." *Молодые ученые* 3.7 (2025): 133-137.
11. Qodirov, Farrux, Dilmurod Abdullayev, and Sevinch Negmatova. "KOMPYUTER TARMOQLARINING STANDART TEXNOLOGIYALARI." *Молодые ученые* 3.7 (2025): 146-151.

12. Qodirov, Farrux, Dilmurod Abdullayev, and Sevinch Negmatova. "ELEKTRON TIJORAT (E-COMMERCE)." *Наука и технология в современном мире* 4.5 (2025): 66-70.
13. Qodirov, Farrux, Iqbol Abdimurodova, and Sevinch Negmatova. "ELEKTRON HUIJAT ALMASHISH TIZIMLARI." *Наука и технология в современном мире* 4.5 (2025): 71-74.
14. Qodirov, Farrux, Gulsevar Keldiyorova, and Sevinch Negmatova. "BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING XUSUSIYATLARI, AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI." *Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.3 (2025): 58-62.
15. Hayitmurodov, Ilhom, and Sevinch Negmatova. "BULUTLI HISOBLASHLAR VA ULARNING ASOSIY TUSHUNCHALARI. BULUTLI SAQLASH MODELLARI." *Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.3 (2025): 68-73.
16. Qodirov, Farrux, Jasmina Murodulloyeva, and Sevinch Negmatova. "SMART TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH VOSITALARI." *Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.3 (2025): 63-67.
17. Qodirov, Farrux, and Asila Xolmurodova. "SMART TEXNALOGIYALAR VA AQLLI QURILMALAR." *Наука и инновация* 3.7 (2025): 138-144.
18. Nurmaxmatova, Umida, and Sevinch Negmatova. "BLOKCHAYEN TEXNOLOGIYASINING ISHLASH PRINSIPLARI." *Молодые ученые* 3.7 (2025): 60-63.